TIBBIY OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALAR IJTIMOIY-PEDAGOGIK MOSLASHUVCHANLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI.

МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНОЙ МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ.

MECHANISMS FOR ENSURING STUDENTS' SOCIO-PEDAGOGICAL ADAPTABILITY IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS UNDER THE CREDIT-MODULE SYSTEM.



Ibragimova Venera Azadovna

Ибрагимова Венера Азадовна

Email: veneraibragimova8585@gmail.com

ORCID: https://orcid.org/0009-0009-0373-3350

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish sharoitida talabalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvchanligini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Tibbiy ta’limning o‘ziga xos murakkabligi, nazariy va klinik tayyorgarlikning intensivligi sharoitida bo‘lajak shifokorlarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish, ularning akademik hamda ijtimoiy-kasbiy muhitga moslashuvini ta’minlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli ta’lim platformalari (Moodle, “Smart-Tutoring” dasturiy majmuasi) va interfaol klinik metodlar (Case-Based Learning - CBL, OSCE) inteqratsiyasi asosida talabalarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishning bosqichli modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, tibbiy ta’lim, ijtimoiy-pedagogik moslashuvchanlik, mustaqil ta’lim, Moodle, Smart-Tutoring, Case-Based Learning (CBL), OSCE, pedagogik monitoring.

Аннотация. В данной статье освещены педагогические механизмы формирования и развития социально-педагогической адаптивности студентов в условиях внедрения кредитно-модульной системы в медицинских высших учебных заведениях. Анализируются вопросы эффективной организации самостоятельной работы и обеспечения адаптации будущих врачей к академической и социально-профессиональной среде в условиях высокой интенсивности теоретической и клинической подготовки. Предложена поэтапная модель повышения адаптивности на основе интеграции цифровых образовательных платформ (Moodle, «Smart-Tutoring») и интерактивных клинических методов (CBL, ОСКЭ).

Ключевые слова: кредитно-модульная система, медицинское образование, социально-педагогическая адаптивность, самостоятельная работа, Moodle, Smart-Tutoring, Case-Based Learning (CBL), ОСКЭ, педагогический мониторинг.

Abstract. This article outlines the pedagogical mechanisms for developing students' socio-pedagogical adaptability during the implementation of the credit-module system in medical higher education institutions. Issues related to the effective organization of independent study and ensuring future doctors' adaptation to academic and socio-professional environments under intensive theoretical and clinical training conditions are analyzed. A phased model for enhancing adaptability based on the integration of digital learning platforms (Moodle, "Smart-Tutoring") and interactive clinical methodologies (CBL, OSCE) is proposed.

Keywords: credit-module system, medical education, socio-pedagogical adaptability, independent study, Moodle, Smart-Tutoring, Case-Based Learning (CBL), OSCE, pedagogical monitoring.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, xususan, Yevropa kredit ko‘chirish va to‘plash tizimi (ECTS) asosidagi kredit-modul modeliga o‘tilishi ta’lim jarayonini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Kredit-modul tizimining asosiy mazmuni talaba faoliyatida mustaqil ta’lim ulushini oshirish (jami ajratilgan soatning 50–60% gacha), o‘qitishni shaxsiylashtirish va talabaga yo‘naltirilgan ta’lim (Student-Centered Learning) tamoyillarini qaror toptirishdan iborat [1; 2].

Tibbiy oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun ushbu tizimga o‘tish muayyan ijtimoiy va psixologik-pedagogik qiyinchiliklar bilan kechadi. Tibbiy ta’limning intensiv xarakteri, nazariy ma’lumotlarning ko‘pligi hamda klinik amaliyotning birinchi kurslardanoq boshlanishi, yuqori mas’uliyatli va murakkab o‘quv yuklamasiga ega sohaligi sababli, talabalarda yuqori psixologik va adaptiv resurslar mavjudligini taqozo qiladi [3, 334-b.]. Talabalar bir vaqtning o‘zida fundamental ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishi, klinik ko‘nikmalarni egallashi va o‘z mustaqil vaqtini to‘g‘ri rejalashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Ushbu jarayonda talabalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvchanligi yetakchi kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy moslashuvchanlik - bu talabaning ta’lim muhitidagi jadal o‘zgarishlarga, yangi o‘quv talablariga, raqamli texnologiyalar vositasida ish olib borishga hamda bo‘lajak kasbiy-klinik muloqotga tezkor, munosib va natijador moslasha olish qobiliyatidir. [4, 45-b.].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Oliy ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish va talabalarning moslashuvchanligini oshirish muammosi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. O‘quv jarayonida moslashuvchanlik va ijtimoiy-pedagogik adaptatsiya masalalari pedagog va psixolog olimlar tomonidan turlicha yondashuvlarda ko‘rib chiqilgan. R.M. Harden ta’kidlaganidek, ta’lim muhiti va o‘quv dasturining moslashuvchanligi talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [3, 335-b.]. Tibbiyot ta’limi kontekstida moslashuvchanlik nafaqat akademik ko‘rsatkichlarga, balki bo‘lajak shifokorning klinik muhitda stressga bardoshliligi va bemorlar hamda hamkasblar bilan samarali ijtimoiy muloqot o‘rnata olish qobiliyatiga ham bevosita bog‘liqdir [5, 638-b.]. Ayniqsa, raqamli ta’lim platformalari (Moodle va boshqalar) hamda keys-stadi (Case-Based Learning - CBL) texnologiyalaridan foydalanish talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularning ijtimoiy va professional adaptatsiyasini tezlashtirishi ta’kidlanadi [4, 48-b.; 5, 640-b.].

Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish va o‘quv jarayonini raqamli transformatsiya qilish masalalari respublikamiz olimlari tomonidan turli aspektlarda tadqiq etibib xususan, akademik R.H. Jo‘rayev o‘quv jarayonini modulli loyihalash va ta’lim texnologiyalarini integratsiyalashning nazariy asoslarini yaratgan bo‘lsa [7, 164-b..], professor N.Sh. Turdiyev kredit-modul tizimida talabalar bilimini baholashning obyektiv mezonlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratgan [8,190-b..]. Ularning ilmiy qarashlari bizning tadqiqotimizda kredit-modul tizimining “pedagogik konseptual asosini”ni yaratishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlardan bevosita ta’limni axborotlashtirish va raqamli muhitni loyihalashga

qaratilgan izlanishlar professor U.Sh. Begimqulov o‘z tadqiqotlarida oliy ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishning konseptual asoslarini belgilab bergan bo‘lib [9, 232-b..], oliy ta’lim muassasalarining yagona axborot makonini yaratish zaruriyatini asoslagan. Shuningdek, M.H. Lutfillaev va A.A. Abduqudurovlar tomonidan elektron o‘quv resurslarini yaratishning metodik tizimi va virtual ta’lim muhitining didaktik imkoniyatlari chuqur o‘rganilgan [10, 190-b, 11, 145-b..].

Tibbiy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari va unda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liqdir. Professor J.A. Rizaev tibbiy ta’lim klasteri doirasida ta’lim va amaliyot integratsiyasini boshqarish modelini taklif etgan bo‘lsa . [12]., Sh.M. Axmedov bo‘lajak shifokorlarning mustaqil ta’limini klinik keyslar va simulyatsion texnologiyalar yordamida samarali tashkil etish muammosini tadqiq etgan [13]., Shuningdek, N.M. Shodiyevaning ishlarida tibbiyot talabalarining professional kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan [14, 168-b..].

TADQIQOT METHODOLOGIYASI VA TIZIMLI TAHLIL.

Tadqiqot davomidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim shaklidan kredit-modul tizimiga o‘tishda talabalarda uchta asosiy yo‘nalishda moslashuv muammosi (disadaptatsiya) kuzatilishi mumkin:

1. Mustaqil ta’lim vaqtini va unumdorligini to‘g‘ri boshqara olmaslik, axborot oqimining ko‘pligi.
2. Elekton ta’lim platformalari (LMS) va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari bilan ishlashda ko‘nikmalarning yetishmasligi.
3. Klinik kafedralardagi amaliyot, bemorlar va shifokorlar jamoasi bilan muloqot qilishdagi ruhiy psixologik to‘siqlar.

Ijtimoiy moslashuvchanlikni ta’minlash uchun pedogogik tizim quyidagi tamoyillarga tayanmog‘i lozim:


Moslashuvchanlik va shaxsiylashtirilganlik: Har bir talabaning bilimlarni o‘zlashtirish tezligi va imkoniyatlariga mos ta’lim trayektoriyasini yaratish;

Interfaollik hamda kollegiallik: Guruhda va jamoada ishlash orqali ijtimoiy-muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Proaktiv pedagogik monitoring: Talabaning akademik va moslashuv holatini uzluksiz kuzatib borish hamda vaqtida korreksiya qilish.

Tibbiyot talabalarining ijtimoiy-pedagogik moslashuvchanligini oshirish uchta o‘zaro bog‘liq mexanizmning kompleks integratsiyasi orqali ta’minlanadi:

IJTIMOIY-PEDAGOGIK MOSLASHUVCHANLIK MEXANIZMLARI



1. Tashkiliy-metodik mexanizm

Shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish: Talabaga tanlov fanlari va mustaqil ta’lim topsiriqlarini o‘z qiziqishi hamda o‘zlashtirish tezligiga mos holda rejalashtirish imkonini berish [2].

Akademik kreditlarni to‘g‘ri taqsimlash: Nazariy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish soatlarini amaliy-klinik ko‘nikmalar bilan muvozanatlash

2. Raqamli-didaktik mexanizm: Raqamli ta’lim muhitida talabaning mustaqil ta’limini to‘g‘ri yo‘naltirish moslashuvning asosiy omilidir. Moodle Cloud platformasi bazasida “Smart-Tutoring” aqlli-proaktiv dasturiy majmuasining joriy etilishi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyasi: Dastur talabaning boshlang‘ich bilim darajasi va test natijalarini tahlil qilib, unga mos darajadagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini taklif etadi.

Formativ va proaktiv qayta aloqa: Talaba topshiriqni bajarishda qiyinchilikka uchraganda, tizim avtomatik ravishda qo‘shimcha ma’lumotlar, vizual/videodarslar va yo‘naltiruvchi ko‘rsatmalarni taqdim etadi. Bu akademik qarzdorlik darajasini keskin kamaytiradi. [2; 4, 51-b.].

3. Interfaol-klinik mexanizm (CBL va OSCE tayyorgarligi)

Nafaqat nazariy, balki amaliy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun mustaqil ta’lim topsiriqlariga interfaol usullar kiritiladi:

OSCE (Ob’ektiv tuzilmali klinik imtihon) simulyatsiyalari**:** Talabalarning amaliy ko‘nikmalarni bajarish algoritmik xaritalari Moodle platformasiga yuklanib, ularning simulyatsiya markazlaridagi ijtimoiy-kasbiy moslashuvi ta’minlanadi. [5, 643-b.].

4. Tutorlik va pedagogik monitoring mexanizmi


Talabalarning moslashuv darajasini aniqlash va baholash uchun 4 bosqichli monitoring modeli qo‘llaniladi:

1. *Diagnostik bosqich:* Talabaning darsga kirishdagi ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi va motiatsiyasini testlash;
2. *Motivatsion-yo‘naltiruvchi bosqich:* Kredit-modul va mustaqil ta’lim talablarini tushuntirish, tutorlik ko‘magini tashkil etish;
3. *Amaliy-faoliyatli bosqich:* Smart-Tutoring va CBL topshiriqlarini individual bajarish;

4. *Refleksiv-baholash bosqich:* Talabaning o‘z-o‘zini baholash va akademik-klinik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish. [2; 4, 52-b.].

NATIJALAR MUHOKAMASI.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida taklif etilgan mexanizmlarni joriy etish natijasida talabalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvchanlik darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori dinamikani namoyon etdi.



Tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

1. Mustaqil ta’lim unumdorligi oshdi: Moodle platformasidagi Smart-Tutoring tizimi orqali talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish ko‘rsatkichi 35% ga oshgan.

2. Akademik va ijtimoiy xavotirlanish kamaydi: Kredit-modul tizimining baholash shkalasi va talablari bo‘yicha shaffoflik hamda proaktiv qayta aloqa o‘rnatilishi natijasida talabalarda o‘quv jarayoniga nisbatan ishonch shakllangan.

3. Klinik-muloqot ko‘nikmalari yaxshilandi**:** CBL texnologiyasining doimiy qo‘llanishi guruhda muloqot qilish, ijtimoiy faollik va klinik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tibbiy oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi sharoitida talabalar ijtimoiy-pedagogik moslashuvchanligini ta’minlash - bu faqatgina tashkiliy-ma’muriy chora-tadbirlar emas, balki

raqamli didaktika, interfaol klinik metodika va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik monitoringning yaxlit tizimidir.

Tadbirlar natijalariga tayangan holda quyidagi pedagogik takliflar ilgari suriladi:

1. Moodle va shunga o‘xshash LMS platformalariga talabalar mustaqil ta’limini tahlil qiluvchi “Smart-Tutoring” proaktiv modullarini kengroq joriy etish.
2. Nazariy mustaqil ta’lim topshiriqlarini ko‘proq real klinik vaziyatli masalalar (CBL) va OSCE simulyatsiya algoritmlari shaklida loyihalashtirish.
3. Kredit-modul tizimida akademik tutorlar faoliyatini faqatgina akademik maslahat bilan cheklamay, talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida ham yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Harden, R. M. (2000). The learning environment and the curriculum: the key to student learning and performance. Medical Teacher, 22(4), 334-336.

4. Ibragimova, V. A. (2025). Tibbiy oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimining pedagogik samaradorligini oshirish masalalari. Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 8(2), 45-52.

5. Frank, J. R., et al. (2010). Competency-based medical education: theory to practice. Medical Teacher, 32(8), 638-645.

6. World Federation for Medical Education (WFME). Basic Medical Education: WFME Global Standards for Quality Improvement. – Copenhagen, 2020.

7. Jo‘rayev R.H. Ta’limda modulli texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2005. – 164 b.

8. Turdiyev N.Sh. Oliy ta’limda talabalar bilimini baholashning pedagogik mexanizmlari. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 190 b.

9. Begimqulov U.Sh. Oliy pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T.: TDPU, 2007. – 232 b.

10. Lutfillaev M.H. Oliy ta’limda o‘quv jarayonini kompyuter texnologiyalari asosida takomillashtirish (Informatika misolida): Ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2006. – 254 b.

11. Abdukudurov A.A., Pardaev A.H. Masofaviy o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 145 b.

12. Rizaev J.A. Tibbiy ta’limda kredit-modul tizimini boshqarish va klaster yondashuvi.

13. Axmedov Sh.M. Tibbiy ta’limda innovatsion texnologiyalar va mustaqil ish faoliyati.

14. Shodiyeva N.M. Bo‘lajak shifokorlarning professional kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik tizimi: Ped. fan. nomz. . diss. – T.: 2011.–168 b.